
Advances in Science and Education



Advances in Science and Education, 2026, 45–47

doi: 10.70728/edu.v02.i05.010
Volume 02, Issue 05
ISSN: 3060-5415
Paper

PAPER

AZIM SUYUN SHE'RIYATINING YARATILISHI VA G'OYAVIY RANG-BARANGLIGI

Sirliboyeva Dildora Farxod qizi[1,*]

[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Unversiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati inistituti 1-bosqich magistranti

* sirliboyeva@gmail.com

Abstract

Azim Suyunning she'rlarining yaratilishi,g'oyasi, ijodidagi o'ziga xoslik, asarlariga kiritgan vatanparvarlik ruhi,shevaga xos so'zlardan foydalanishi bugungi kunda adabiyotshunoslarning e'tiborini tortib kelmoqda.Ushbu maqolada shoir qalamiga mansub ijod na'munalarining yaratilishi va bugungi kundagi adabiyotdagi o'rni bilan tanishamiz.

Key words: Sheva so'zlari,tog',tabiat,ot, vatanparvarlik,vatan mathi, Sarbadorlar, she'rlar,o'ziga xos uslub.

XX asr ajoyib istedodlarni yetishtirib berdi.Bu istedodlardan biri o'zbek adabiyotida zamonaviy she'riyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkor Azim Suyundir. Azim Suyun 1948-yil 22-fevralda Samarqand viloyati, Payariq tumani, Nakurt mahallasi,Qo'shilish qishlog'ida dunyoga keldi. U tug'ilib–o'sgan qishloqdagi shoirtabiat odamlarining orasida terma va dostonlar eshitishlari hamda tog'li,bahavo tabiat shoirni bolaligidanoq she'riyatga, adabiyotga oshufta qilib ulg'aytirdi. Shoir hali maktab yoshiga yetmasdanoq o'zicha tabiat qo'ynida she'rlar mashq qilar,qalbidagi bolalarcha beg'uborligini tabiat jonzotlari-yu, tog'-u toshlarga, turli o'simliklarga qarata she'r qilib aytar va bulardan zavqlanar edi.Shoir keyinchalik ham bu odatini,ijodiy ilhomi bo'lgan tabiatga oshiqligini tark qilmadi, balki bu Azim Suyunning ijodiy yo'li, o'ziga xos uslubi bo'lib qoldi.

Azim Suyun she'riyati shoirning hayotiy tajribasi, ruhiy kechinmalari va jamiyat hayotiga bo'lgan munosabati asosida shakillangan.Uning ijodida hayotiy voqealar,insoniy munosabatlar va milliy qadriyatlar muhim o'rin tutadi.Shoir she'rlarini yaratishda oddiy xalqona so'zlardan foydalanib,barcha yoshdagi insonlar birdek tushuna oladigan sodda va ravon qilib yozgan.Ayniqsa, Azim Suyun o'z ijodida shevaga xos so'zlardan keng foydalanganligini,uni o'ziga xos, g'alizliklardan yiroq holda she'r-u dostonlariga singdirgani tahsinga sazovordir.Chunki shoir ularni shunchalik mahorat bilan yozganki,o'quvchi uni qiynalmasdan

Compiled on: March 18, 2026.
Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

tushuna oladi va u so'zlarni shavq bilan hazm qiladi. "Azim Suyun sheva so'zini o'zi shu shevaga mansubligi,uning adabiy tildagi juft-sherigini bilmagani uchun emas,ataylab,yaxshi badiiy niyat bilan iste'molga kiritadi,uning qo'llanilishida ingichka,nodir va daqiq ma'nolarni ko'radi''.[1]*Yuqoridaifodalanganidekshevaso'zlariniadabiytildaqo'llashhardoimhamoziniqlayveradiganjarayonemas, amma*

Bor ekanda jo'q ekan,
Och ekanda to'g' ekan.
Qirg'avul qizil ekan,
Quyrug'i uzun ekan,
Muzg'a toyg'on ekan,
Oyog'i sing'on ekan.
Alamlanib, zorlanib
Bir so'z deb turg'on ekan...

Yuqoridagi she'rdagi sheva so'zlari o'rnida qo'llangan va she'rga o'ziga xos joziba baxsh etib,o'qishliligini oshirgan.Bundan tashqari, shoir ijodida uchraydigan "Zardoli'', "Sayloq'', "Ko'galladi'', "Nozbo'y'', "jo'q'', "tov'' kabi shevaga xos so'zlar shoir ijodidagi sheva so'zlarining ajoyib na'munasi deyishimiz mumkin.Sheva so'zlaridan foydalanish orqali shoir she'rlarida xalqonalikni aks ettirish bilan birga o'zbek tilimiz qanchalik boy til ekanligini,o'zining so'z boyliklari bilan she'rga jamlab ko'rsatib bergan.

Azim Suyun avval ta'kidlaganimizdek tog' bolasi,to'g'ik shoir.Uning tog'ni, tabiatni undagi har bir jonzodni sevishi,ularni sevimli obraz qilib olgani she'rlarining aksariyat qismida ko'p ochiqlanib o'tgan.Shoir xatto quyidagi she'rida tog' uning uchun butun qalbi,ruhi bilan bog'langan,taskin beradigan joy ekanligini chiroyli dalillab bergan deyish mumkin.

"Unutaman nimadir anduh,
Hayqiraman,yig'lab kulaman.
Ado qilar devona bir ruh,
Bir kun o'lsam,tog'da o'laman".

Darhaqiqat,shoir tabiatga jon dili bilan bog'langan edi. Yuqoridagidan tashqari uning tabiatga oid eng ko'p she'rlarida murojaat qilgan sevimli obrazlaridan bir nechtasini ayni o'rinda ko'rishimiz mumkin.

Yo'lovchiman,sahroliklar ham,
Qo'noq etdi o'z davrasida....
-Ular qanday yashaydi,oshnam,
Qon qaqshagan tog' orasida?.
yoki
Cho'qqi jilmayadi,ko'raman aniq,
Men unga qadrdon,men unga yaqin.

Shoir bu she'rlarida "Tog'', "Cho'qqi" obrazlarini kiritgan bo'lsa,

Arg'umoqlarga mining,g'olib qilich yor bo'lsin!
Bu dunyoda har kimning o'z Vatani bor bo'lsin!

She'rida qo'llangan "Arg'umoq" so'zi va boshqa she'rlaridagi "Ot", "Toychoq","Burgut", "To'rg'ay", "Bodamcha", "Andiz", "Bulut", "Tuman", "Sut'' kabi so'zlar shoir ijodidagi eng ko'p ishlatilgan obrazlar hisoblanadi.Shoir yuqoridagi obrazlarni bejiz she'r va dostonlariga kiritmaydi,bu obrazlar shoir she'rlarining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi xalqona, ijodiy uslubining bir ko'rinishi sifatida namoyon etiladi.

Azim Suyun ijodidagi bosh g'oyalardan yana biri "Vatanparvarlik" tuyg'usini insonlarga singdirishga qaratilgan bo'lib,shoir ijodida Vatan tuyg'usini tarannum etuvchi ko'pgina ijodiy namunalar ko'rishimiz mumkin.Birgina "Sarbadorlar" dramatik dostonining o'zi Vatanparvarlik ruhi bilan to'la yo'g'irilgan asar hisoblanib,undagi vatani himoyasi uchun jonini ham ayamagan mard Sarbadorlar hayoti juda tushunarli va ta'sirli yo'sinda ochib berilgan.U asarni o'qigan har bitta inson beixtiyor vatan tuyg'usini,vataning naqadar aziz ekanligini ich-ichidan his qiladi va vatan har nedan ham buyuk va qadrli maskan ekanligini anglaydi.

Azim Suyunning yana bir "O'zbek yurt" dostoni Elim deb,Yurtim deb yashagan mardona yurak bilan bor ovozda baralla,jahonga jar solib,hayqirib o'qiladigan asar. Ushbu dostonni,mening anglashimcha,tovushsiz,asta,sokin,to'lqinlanmay,yonmay o'qish mumkin emas.Doston tinchlik haqida.Doston obodonchilik haqida.Eng to'g'risi,doston erkinlik haqida".[4]*Shoirdostonlaridaanashundaymardlik, vatanmavzularin*

Xulosa qilib aytganda, Azim Suyun she'riyati o'zining g'oyaviy mazmunining boyligi va uslubiy rang-barangligi,xalqchil ruhi,milliyligi va samimiyligi bilan o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Shoir she'rlarida xalq og'zaki ijodiga xos ohang va shevaga xos so'zlardan mahorat bilan keng va o'rinli foydalanib,asarlarining tabiiyligi va ta'sirchanligini yanada oshirib,uni milliy qadriyatlarimizga xos bir ruhda,vatanparvarlik degan buyuk tuyg'uni yetakchi o'ringa qo'yib yaratgan.

Shoir ijodining muhim jihatlaridan yana biri

shundaki,u inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularni mehr-muhabbat,sog'inch,sadoqat, istrob va umid kabi hissiyotlarni hayotiy obrazlar orqali ifodalaydi. Bu esa uning she'riyatini o'quvchiga yaqinlashtirib, qalblarga chuqur ta'sir etishiga xizmat qiladi.Azim Suyun she'rlarida tabiat tasviri,ramziy obrazlar va badiiy vositalarning o'rinli qo'llanilishi shoirning poetik mahoratini yana bir bor namoyon etadi. Azim Suyun she'riyati nafaqat badiiy jihatdan boy,balki tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati ham juda muhim. Shuning uchun ham bugungi kunda Azim Suyun she'riyati katta qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda.

References

1. Azim Suyun "Nigoh" – Toshkent, "Mumtoz so'z",2012. 193- bet
2. Azim Suyun "Nigoh" – Toshkent, "Mumtoz so'z",2012.181-bet
3. kh-davron.uz
4. "Erkin Qaraqalpoq" gazetasi 2007.
5. Azim Suyun "Nigoh" –Toshkent, "Mumtoz so'z'',2012. 14-bet